

2023- yil yanvar-aprel oylari uchun
dastlabki ma'lumot



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi:
(62) 224-65-09



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatda bu borada so'nggi yillarda eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-aprel oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **276,1 mln. AQSH** dollariga yetdi va **2022-** yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan **84,1 mln. AQSH** dollariga yoki **43,8 %** ga ko'paydi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **276,1** +43,8 %

(2022- y.: **192,0**)



Saldo

2023- y.: - **81,7** (2022 y.: - **38,0**)



Ekspart

2023- y.: **97,2** +26,3 %

(2022- y.: **77,0**)



Tovarlar: **93,3**



Xizmatlar: **3,9**



Import

2023- y.: **178,9** +55,5 %

(2022- y.: **115,0**)



Tovarlar: **178,9**











Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralari qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **97,2** mln. AQSH dollariga (**26,3** % ga ko‘paydi) va import hajmi **178,9** mln. AQSH dollariga (**155,5** % ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-81,7** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



XORAZM VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

<p>Braziliya</p> <p>TSA – 50,8</p> <p>Eksport: 0,0 Import: 50,8</p> <p> 18,4 %</p>	<p>Rossiya Federatsiyasi</p> <p>TSA – 39,8</p> <p>Eksport : 19,2 Import : 20,6</p> <p> 14,4 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 29,4</p> <p>Eksport : 3,4 Import : 26,0</p> <p> 10,6 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 26,2</p> <p>Eksport : 7,2 Import : 19,0</p> <p> 9,5 %</p>	<p>Pokiston</p> <p>TSA – 23,0</p> <p>Eksport : 22,7 Import : 0,3</p> <p> 8,3 %</p>
<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 19,1</p> <p>Eksport : 19,0 Import : 0,1</p> <p> 6,9 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 14,3</p> <p>Eksport : 0,4 Import : 13,9</p> <p> 5,2 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 9,3</p> <p>Eksport : 4,6 Import : 4,7</p> <p> 3,4 %</p>	<p>Belarus</p> <p>TSA – 8,1</p> <p>Eksport : 0,8 Import : 7,3</p> <p> 2,9 %</p>	<p>Eron</p> <p>TSA – 7,6</p> <p>Eksport : 3,4 Import : 4,2</p> <p> 2,7 %</p>

Xorazm viloyati jahonning **95** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Braziliya (**18,4** %), Rossiya Federatsiyasi (**14,4** %), XXR (**10,6** %), Turkiya (**9,5** %), Pokiston (**8,3** %), Qirg'iz Respublikasi (**6,9** %) va Germaniya (**5,2** %) davlatlari bilan qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, va Afg'oniston kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda qo'shni davlatlar bilan viloyatning TSAsi hajmi **36,4** foizga oshdi.



TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



Pokiston – 22,5



Qirg'iz Respublikasi – 18,8



Tojikiston – 5,8













Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



XORAZM VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
Braziliya	38,0	0,0	50,8
 <i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
<i>Import</i>	38,0	0,0	50,8
Rossiya Federatsiyasi	25,5	39,7	39,8
 <i>Eksport</i>	15,4	22,2	19,3
<i>Import</i>	10,1	17,5	20,5
XXR	47,4	34,3	29,4
 <i>Eksport</i>	8,9	4,9	3,4
<i>Import</i>	38,5	29,4	26,0
Turkiya	19,0	59,7	26,2
 <i>Eksport</i>	9,6	11,0	7,2
<i>Import</i>	9,4	48,7	19,0
Pokiston	1,8	3,4	23,0
 <i>Eksport</i>	1,2	3,3	22,7
<i>Import</i>	0,6	0,1	0,3
Qirg'iz Respublikasi	13,6	7,8	19,1
 <i>Eksport</i>	13,6	7,7	19,0
<i>Import</i>	0,0	0,1	0,1
Germaniya	2,9	1,9	14,3
 <i>Eksport</i>	0,2	0,8	0,4
<i>Import</i>	2,7	1,1	13,9
Qozog'iston	7,4	20,8	9,3
 <i>Eksport</i>	4,8	15,5	4,6
<i>Import</i>	2,6	5,3	4,7
Belarus	0,9	1,2	8,1
 <i>Eksport</i>	0,4	0,6	0,8
<i>Import</i>	0,5	0,6	7,3
Eron	1,8	2,2	7,6
 <i>Eksport</i>	0,7	1,6	3,4
<i>Import</i>	1,1	0,6	4,2

	Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.
	Tojikiston	2,0	0,9	5,8
	<i>Eksport</i>	1,9	0,8	5,8
	<i>Import</i>	0,1	0,1	0,0
	Polsha	0,9	1,9	4,7
	<i>Eksport</i>	0,4	0,4	2,1
	<i>Import</i>	0,5	1,5	2,6
	Yaponiya	0,2	0,0	4,5
	<i>Eksport</i>	0,1	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,0	4,5
	Turkmaniston	4,5	4,5	3,8
	<i>Eksport</i>	3,0	1,9	1,2
	<i>Import</i>	1,5	2,6	2,6
	Finlyandiya	0,1	0,0	3,7
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,0	3,7
	Shveysariya	0,1	0,0	3,6
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	0,1	0,0	3,6
	Koreya Respublikasi	9,0	2,1	3,3
	<i>Eksport</i>	0,4	0,2	1,2
	<i>Import</i>	8,6	1,9	2,1
	Litva	0,5	1,1	2,9
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,7
	<i>Import</i>	0,5	1,1	2,2
	Belgiya	0,2	0,2	2,4
	<i>Eksport</i>	0,0	0,2	0,0
	<i>Import</i>	0,2	0,0	2,4
	Italiya	0,3	0,1	1,4
	<i>Eksport</i>	0,2	0,0	0,1
	<i>Import</i>	0,1	0,1	1,3




XORAZM VILOYATIINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	276,1	143,8	100,0
Urganch sh.	38,8	87,5	14,0
Xiva sh.	9,2	125,7	3,3
Bog'ot	12,6	136,9	4,5
Gurlan	10,2	176,6	3,7
Qo'shko'pir	15,6	157,0	5,7
Urganch	15,5	79,5	5,6
Hazorasp	14,0	134,3	5,1
Tuproqqal'a	67,4	1 4,5 m.	24,4
Xonqa	23,3	168,5	8,4
Xiva	7,2	179,3	2,6
Shovot	27,8	4,0 m.	10,1
Yangiariq	21,4	48,8	7,7
Yangibozor	12,0	106,5	4,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari




Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Wiloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Tuproqqal'a tumani **24,4** % ulush bilan **67,4** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Xiva tumani **2,6** % ulush bilan **7,2** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

XORAZM VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yilning yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **31,5** %ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning shu davriga nisbatan past ko'rsatkichni qayd etdi.





Viloyatning boshqa xorijiy davlatlar bilan TSAsi 2023- yilning yanvar-aprel oylarida 2022- yilning mos davriga nisbatan **65,1** %ga oshdi va jami TSA'dagi ulushi **68,5** % ni tashkil etdi.

Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-aprel holatiga ko'ra, **86,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **51,1** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **35,8** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



XORAZM VILOYATINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)


<p>Rossiya Federatsiyasi TSA – 39,8 Eksport – 19,2 Import – 20,6</p> 	<p>Turkmaniston TSA – 3,8 Eksport – 1,2 Import – 2,6</p> 
<p>Qirg'iz Respublikasi TSA – 19,1 Eksport – 19,0 Import – 0,1</p> 	<p>Ukraina TSA – 0,6 Eksport – 0,1 Import – 0,5</p> 
<p>Qozog'iston TSA – 9,3 Eksport – 4,6 Import – 4,7</p> 	<p>Moldova Respublikasi TSA – 0,2 Eksport – 0,2 Import – 0,0</p> 
<p>Belarus TSA – 8,1 Eksport – 0,8 Import – 7,3</p> 	<p>Ozərbayjon TSA – 0,2 Eksport – 0,2 Import – 0,0</p> 
<p>Tojikiston TSA – 5,8 Eksport – 5,8 Import – 0,0</p> 	<p>Armaniston TSA – 0,0 Eksport – 0,0 Import – 0,0</p> 




Xorazm viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**45,8 %**), Qirg'iz Respublikasi (**22,0 %**) hamda Qozog'iston (**10,7 %**) davlatlari bilan qayd etildi.

XORAZM VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



 Xorazm viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **86,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **51,1** mln. AQSH dollari, import hajmi esa **35,8** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.




XORAZM VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyorlar soni **122** taga yetdi va ular tomonidan **97,2** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **26,3** % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



XSST* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini (**keyingi o'rinlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinlarda – XSST**) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

(yanvar-aprel, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami eksport	77,0	97,2	116,2	126,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	21,2	32,8	118,8	155,0	27,5	33,7
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,4		179,0 m.	0,0	0,4
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	2,0	1,8	59,5	91,1	2,5	1,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,2	1,4	36,7 m.	116,2	1,6	1,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,1		16,5 m.		1,5	
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	0,2	0,7	104,5	3,3 m.	0,3	0,7
Sanoat tovarlari	38,1	39,9	106,3	104,7	49,5	41,1
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,0	0,2	20,2	5,4 m.	0,1	0,2
Turli xil tayyor buyumlar	7,0	16,1	127,4	2,3 m.	9,2	16,6
Xizmatlar	6,1	3,9	187,3	63,1	7,9	4,0

Eksport tarkibida tovarlar ulushi **96,0 %**ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**41,1 %**), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**33,7%**) va turli xil tayyor buyumlar (**16,6 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	28391,3	137,6
Don mahsulotlari	4147,6	358,0 m.
Turli xil ovqatlar va preparatlar	76,9	55,6
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	71,4	26,4
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	61,5	76,3
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	50,6	166,1
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	4,0	5,0 m.
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	4,3	179,0 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
To'qimachilik tolalari (yuqori va boshqa taroqli jundan tashqari) va ularning chiqindilari (kalava yoki matoga qayta ishlanmagan)	1257,2	83,6
Hayvonot va o'simlik xom ashysi	255,2	5,6 m.
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	179,6	49,9
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	85,5	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	1422,6	116,2
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
Noorganik kimyoviy moddalar	251,0	160,6 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	212,6	-
Bo'yoqlar va taninlar	120,4	169,2
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	49,1	161,6
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	46,9	62,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	11,0	32,9
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	9,8	3,1 m.


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
To'qimachilik iplari, matolar va shunga o'xshash mahsulotlar	34969,5	105,0
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	4542,4	3,4 m.
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan mahsulotlar	341,0	31,2
Boshqa metall buyumlar	49,1	2,1
Teri, boshqa charm buyumlar, mo'ynalar	0,4	3,9
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,3	0,9
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	115,9	287,6 m.
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	53,2	131,6
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	38,9	-
Avtomobillar	8,5	-
Boshqa transport vositalari	2,5	-
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	1,1	-
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	0,3	-
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim va kiyim aksessuarlari	13492,5	2,1 m.
Oyoq kiyimlari	1257,747	6,6 m.
Sayohat aksessuarlari, sumkalar va shunga o'xshash idishlar	845,593	37,0 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matraslar, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	263,091	7,2 m.
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	215,277	74,2
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	12,196	18,8 m.
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	9,625	-

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida MDH mamlakatlarga **51,1** mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **52,5** % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Pokiston, Rossiya, Qirg'iz Respublikasi, Turkiya, Tojikiston, Qozog'iston va Eron kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi **84,3** % ni tashkil etdi.



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*


Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Pokiston	3,3	22,7	2,8 m.	6,9 m.	6	1
Rossiya Federatsiyasi	22,3	19,2	144,9	86,4	1	2
Qirg'iz Respublikasi	7,6	19,0	56,2	2,5 m.	4	3
Turkiya	11,0	7,2	115,0	65,4	3	4
Tojikiston	0,8	5,8	43,5	6,9 m.	12	5
Qozog'iston	15,5	4,6	3,2 m.	29,5	2	6
Eron	1,6	3,4	2,1 m.	2,2 m.	8	7
XXR	4,9	3,4	54,8	69,3	5	8
Polsha	0,4	2,1	103,2	5,1 m.	18	9
Turkmaniston	1,9	1,2	65,7	59,3	7	10
Koreya Respublikasi	0,2	1,2	43,0	7,6 m.	25	11
Chexiya	0,0	1,1	619,9 m.	30,2 m.	27	12
Iroq	0,4	1,0	152,6	2,2 m.	17	13
Belarus	0,6	0,8	157,7	144,5	14	14
Litva	0,0	0,7	399,2 m.	28,8 m.	29	15
Hindiston	0,1	0,6	62,2	10,0 m.	26	16
Gruziya	0,5	0,5	106,8	98,6	16	17
Germaniya	0,8	0,4	3,4 m.	51,8	11	18
Vyetnam	0,5	0,3	2,8 m.	60,4	15	19
Afg'oniston	1,3	0,2	199,2	15,1	9	20





XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-aprel)*

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	97,2	126,3	100,0
Urganch sh.	9,7	98,7	9,9
Xiva sh.	4,6	110,5	4,7
Bog'ot	9,1	127,9	9,4
Gurlan	6,0	2,5 m.	6,1
Qo'shko'pir	1,1	14,6	1,2
Urganch	6,8	79,0	7,0
Hazorasp	6,0	106,8	6,2
Tuproqqal'a	4,7	3,0 m.	4,8
Xonqa	11,3	115,6	11,6
Xiva	4,7	154,0	4,8
Shovot	11,4	5,6 m.	11,7
Yangiariq	9,5	199,3	9,8
Yangibozor	11,3	118,4	11,6

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Shovot tumani **11,7** % bilan **11,4** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Qo'shko'pir tumani **1,1** % bilan **1,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida **21,2** ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **49,6** foizga yoki **20,9** ming tonnaga kamaydi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Pokiston (**68,3** %), Rossiya (**23,2** %), Qozog'iston (**5,9** %) hamda Afg'oniston (**0,7** %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2023- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan **28,3 mln.** AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2022- yilning mos davriga nisbatan **35,7** % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi **29,1** % ni tashkil etdi.

MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2023- yil yanvar-aprel)





MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2023- yil yanvar-aprel)

Davlatlar	Tonna (birlikda)	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	4796,7	19324,4	68,3
 Rossiya Federatsiyasi	8683,9	6574,4	23,2
 Qozog'iston	6627,4	1662,3	5,9
 Afg'oniston	290,3	202,8	0,7
 Polsha	123,7	146,6	0,5
 Turkmaniston	355,3	128,5	0,5
 Eron (Islom Respublikasi)	68,0	70,6	0,2
 Iroq	66,8	52,8	0,2
 Ukraina	61,8	47,5	0,2
 Gruziya	42,3	25,4	0,1
 Boshqa davlatlar	76,2	45,2	0,2

* qiymat ifodasidan



2023- yil yanvar-aprel oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Pokistonga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining **68,3** %i), bu ko'rsatkich Rossiyaga eksport hajmidan **2,9** martaga ko'p.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-aprel oylari yakuni bo‘yicha **27,5 mln.** AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **28,2 %** ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan **31,8 %** ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (**48,3 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **117** turdagi to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning **18** ta davlatiga eksport qilindi.

TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI

(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil
Jami:	40,2	27,5
 Paxtadan yigirilgan ip	28,6	0,0
 Tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari	6,3	13,2
 Naqshli mato	0,6	0,6
 Boshqa to‘qimachilik mahsulotlari	0,9	2,0
 Paxtadan gazlamalar	2,5	6,3
 Ipak va ipak mahsulotlari	0,8	1,7
 Paxta mahsulotlari	0,3	2,0
 Gilamlar	0,1	1,6



DAVLATLAR KESIMIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-aprel, mln. AQSH dollari)



	2022- yil	2023- yil	O‘shish sur‘ati, % da
 Qirg‘iz Respublikasi	4,0	12,9	326,0
 Tojikiston	-	4,6	-
 Rossiya Federatsiyasi	12,9	4,1	31,6
 Qozog‘iston	2,9	1,5	53,0
 Chexiya	-	1,1	-
 Koreya Respublikasi	-	1,0	-
 Belarus	0,5	0,5	87,1
 Germaniya	0,8	0,4	51,4
 XXR	4,8	0,3	6,8
 Vyetnam	0,5	0,3	60,3
 Boshqa davlatlar	13,9	0,7	5,4




Viloyatning to‘qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag‘batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to‘qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To‘qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Qirg‘iz Respublikasi (**47,0 %** – **12,9** mln. AQSH dollari) va Tojikiston (**16,6 %** – **4,6** mln. AQSH dollari) davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy yetilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Xizmatlar eksporti hajmi **3,9** mln. AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining **4,0** % ini tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **36,9** % ga kamaydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (turizm) (**45,4** %), transport (**36,6** %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (**2,8** %) va boshqa xizmatlar (**15,3** %) hissasiga to'g'ri kelgan.



XORAZM VILOYATINING IMPORTI



2023- yilning yanvar-aprel oylarida import hajmi **178,9** mln. AQSH dollarini tashkil qildi va 2022- yilning mos davriga nisbatan **55,5** % ga oshdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (**44,8** %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**31,5** %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari (**8,2** %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **63,9** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **178,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



XORAZM VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-aprel, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Jami import	115,0	178,9	93,6	155,5	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	2,9	56,4	6,4	19,2 m.	2,6	31,5
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	69,3	2,2 m.	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	9,9	14,6	125,1	147,4	8,6	8,2
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	1,7	4,2	156,8	2,5 m.	1,5	2,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	0,9	5,7 m.	103,0	0,8	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	8,7	8,4	139,6	96,3	7,5	4,7
Sanoat tovarlari	15,5	8,5	2,4 m..	55,0	13,5	4,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	68,5	80,2	190,8	117,0	59,6	44,8
Turli xil tayyor buyumlar	6,9	5,7	35,3	82,4	6,0	3,2



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2023- yil yanvar-aprel)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Shakar, shakar mahsulotlari va asal	51296,5	3963,3 m.
Hayvonlar uchun ozuqa (maydalangan donlardan tashqari)	2244,8	5,3 m.
Don va ularning mahsulotlari	1082,6	174,0
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	1014,7	85,4
Sabzavotlar va mevalar	390,9	188,8
Har xil ovqatlar va preparatlar	221,4	2,3 m.
Tirik hayvonlar	95,5	46,9
Qahva, choy, kakao, ziravorlar va ularning mahsulotlari	76,8	71,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	24,7	2,2 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Yog'och mahsulotlari	13672,3	159,5
To'qimachilik tolalari	824,7	195,3
Tabiiy kauchuk	65,2	40,8
Hayvonlar va o'simliklardan mahsulotlar	30,1	4,0
Qog'oz xamiri va makulatura	5,7	-
Metall rudalari va metall parchalari	0,1	-
O'g'itlar uchun xom ashyo va minerallar (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	0,1	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft, neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3841,7	2,3 m.
Ko'mir, koks va briketlar	354,3	25,0 m.
Hayvonlar va o'simlik moylari, yog'lari va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	922,9	103,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar		
O'g'itlar	2944,8	67,1
Birlamchi shakldagi plastmassalar	2857,4	125,7
Boshqa turdagi kimyoviy materiallar va mahsulotlar	710,9	3,5 m.
Bo'yoqlar va taninlar	561,5	156,9
Efir moylari, rezinoidlar va parfyumeriya; hojatxona preparatlari, jilo va yuvish vositalari	407,4	3,3 m.
Birlamchi bo'lmagan shakldagi plastmassalar	389,2	2,0 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	217,6	41,0
Noorganik kimyoviy moddalar	140,3	28,4
Organik kimyoviy moddalar	125,4	100,5

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2022- yilga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari		
Metall buyumlar	1883,8	24,8
To'qimachilik iplari, matolar	1863,5	167,9
Mantar va yog'ochdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari)	1544,2	142,8
Quyma temir va po'lat	1100,9	30,0
Qog'oz, karton va qog'oz xamiri, qog'oz yoki karton mahsulotlari	1083,6	118,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan metall bo'lmagan minerallardan mahsulotlar	555,4	66,2
Boshqa kauchuk mahsulotlar	450,6	196,8
Rangli metallar	35,2	91,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Muayyan sohalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mashinalar	42586,0	145,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashina va uskunalar	12895,7	3,0 m.
Avtomobillar	11639,0	2,2 m.
Elektr mashinalari, apparatlari va asboblari va ularning elektr qismlari	8025,5	89,8
Energiya ishlab chiqaruvchi mashinalar va uskunalar	4073,1	21,4
Telekommunikatsiya, ovoz yozish va ovozni takrorlash uchun asboblari va uskunalar	506,7	89,2
Metallni qayta ishlash mashinalari	350,1	34,8
Ma'lumotlarni avtomatik qayta ishlash uchun ish yuritish mashinalari va uskunolari	83,0	102,4
Boshqa transport vositalari	25,5	879,3 m.
Turli hil tayyor buyumlar		
Bloklangan binolar, sanitariya-tesisat, isitish va yoritish uskunolari uchun armature	2945,5	62,1
Boshqa turdagi maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari.	1259,3	73,1
Boshqa turdagi tayyor mahsulotlar.	1213,8	4,7 m.
Mebel va ularning qismlari, ko'rpa-to'shaklar, matraslar, matras tayanchlari, yostiqlar va shunga o'xshash to'ldirilgan mebellar	170,1	2,0 m.
Oyoq kiyimlari	65,7	131,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan fotoapparat, uskunalar, sarf materiallari va optik mahsulotlar	5,6	40,1
Kiyim va kiyim aksessuarlari	4,8	89,9
Sayohat aksessuarlari, sumkalar	2,5	9,1 m.

2023- yil yanvar-aprel oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **20,0** % ni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **30,1** % ga ko'paydi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI


(yanvar-aprel, mln. AQSH dollari, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-aprel oylarida Xorazm viloyati **47** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Braziliya, XXR, Rossiya, Turkiya, Germaniya, Belarus va Qozog'iston) jami importning **79,5** foizini tashkil etdi.



VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-aprel, % da)





XORAZM VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-aprel, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Braziliya	-	50,8	-	-	-	1
XXR	29,4	26,0	76,2	88,5	2	2
Rossiya Federatsiyasi	17,5	20,5	171,6	117,7	3	3
Turkiya	48,7	19,0	5,2 m.	39,1	1	4
Germaniya	1,1	13,9	40,3	12,8 m.	9	5
Belarus	0,6	7,3	134,3	11,3 m.	12	6
Qozog'iston	5,3	4,7	2,0 m.	89,6	4	7
Yaponiya	0,0	4,5	21,7	337,3 m	34	8
Eron	0,6	4,1	59,9	6,4 m.	13	9
Finlyandiya	-	3,7	-	-	-	10
Shveytsariya	0,0	3,6	34,9	131,0 m.	32	11
Turkmaniston	2,6	2,6	170,7	103,1	5	12
Polsha	1,5	2,6	2,9 m.	172,5	7	13
Belgiya	0,1	2,4	38,5	38,8 m.	28	14
Litva	1,1	2,2	2,3 m.	2,0 m.	10	15
Koreya Respublikasi	1,9	2,2	22,3	111,9	6	16
Italiya	0,1	1,4	69,2	15,3 m.	24	17
Gongkong	0,3	1,2	128,0	4,0 m.	15	18
Avstriya	0,2	1,2	67,0	6,7 m.	18	19
Bangladesh	0,4	0,8	42,7	2,2 m.	14	20



XORAZM VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2023- yil yanvar-aprel)

	Hajm mln. AQSH dollari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Xorazm viloyati	178,9	155,5	100,0
Urganch sh.	29,1	84,4	16,3
Xiva sh.	4,6	145,3	2,6
Bog'ot	3,4	168,6	1,9
Gurlan	4,2	124,3	2,4
Qo'shko'pir	14,5	6,3 m.	8,1
Urganch	8,7	79,8	4,9
Hazorasp	8,0	166,1	4,5
Tuproqqal'a	62,7	20,2 m.	35,1
Xonqa	12,0	3,0 m.	6,7
Xiva	2,6	2,6 m.	1,4
Shovot	16,4	3,3 m.	9,2
Yangiariq	11,9	30,4	6,6
Yangibozor	0,7	40,8	0,4

Eng yuqori hajm,
mln. AQSH dollari



Tuproqqal'a 62,7

Urganch sh. 29,1

Shovot 16,4

Eng quyi hajm,
mln. AQSH dollari



Yangibozor 0,7

Xiva 2,6

Bog'ot 3,4

Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulush Tuproqqal'a tumani hissasiga to'g'ri kelib, **35,1** % bilan **62,7** mln. AQSH dollarini, eng quyi ulush esa Yangibozor tumani hissasiga **0,4** % bilan **0,7** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI




Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **80,2** mln. AQSH dollarini tashkil etib, 2022- yilning shu davriga nisbatan **17,0** %ga ko'paydi va importning umumiy hajmidagi ulushi **44,8** %ga yetdi.



MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-aprel)




2023- yil yanvar-aprel oylarida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,7** mln. AQSH dollariga oshdi. Ushbu tovarlarni Xorazm viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **22,8** mln. AQSH dollari (**28,7** %), Turkiya — **14,4** mln. AQSH dollari (**18,0** %) va Germaniya - **12,0** mln. AQSH dollari (**15,0** %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023- yil yanvar-aprel oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **8,5** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **45,0** % ga kamaydi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi **4,8** % ni tashkil qildi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-aprel, ulushi, % da)

2,193 mln. AQSH
doll, *ulushi* – 25,7 %




**Rossiya
Federatsiyasi**

1,489 mln. AQSH
doll, *ulushi* – 17,5 %



Turkiya

1,148 mln. AQSH
doll, *ulushi* – 13,5 %



**Xitoy Xalq
Respublikasi**

0,795 mln. AQSH
doll, *ulushi* – 9,3



Bangladesh

0,688 mln. AQSH
doll, *ulushi* – 8,1



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importi asosan metall buyumlar (**1,883** mln. AQSH dollari), to'qimachilik iplari, matolar, tayyor mahsulotlar (**1,863** mln. AQSH dollari), yog'och va yog'ochdan bo'lgan buyumlar (**1,544** mln. AQSH dollari), quyma temir va po'lat (**1,101** mln. AQSH dollari), qog'oz, karton va qog'oz xamiri (**1,084** mln. AQSH dollari) va boshqalardan tashkil topgan.